

Mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha sudga shikoyat bilan murojaat etilganda, xodimlar poshlina to'lovidan va boshqa xarajatlardan ozod qilinadilar. 50 ming rubldan kam bo'lgan qarzlarga oid ishlarni hakamlik sudlari ko'rib chiqishadi, agar qarz ko'p bo'lsa, umumiy yurisdiksiyadagi sudlar ko'rishadi.

Ish haqi 2 oy va undan ko'p muddatda to'lanmagan holatda Siz Следственный отдел Главного следственного управления Следственного комитета Российской Федерации murojaat etishingiz mumkin: ish haqi to'lovini uzoq muddatga kechiktirish jinoiy ish hisoblanadi (RF JKning 145.1 moddasi).

CHET ELLIK STUDENTLARING ISHLASHI

Kunduzi o'qiydigan chet ellik studentlar o'qishdan bo'sh paytlarida patentsiz va ishlash uchun ijozat olmasdan ishlashlari mumkin. Ish beruvchi bilan mehnat yo fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzish uchun ularga davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan oliy o'quv uyri yo kollejdian o'sha mintaqada o'qishini tasdiqlovchi ma'lumotnoma ko'rsatish talab etiladi, xolos.

Mehnat huquqlarini himoya qilish uchun qaerga murojaat etmoq zarur:

Mehnat muhojirlari uchun qaynoq tarmoq Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:
8(812)576-28-67

Государственная инспекция труда

Санкт-Петербург: 8 (812) 408-90-15, git78.rostrud.ru

Ленинградская область: 8 (812) 612-70-34, git47.rostrud.gov.ru

Москва: 8 (495) 343-95-98, git77.rostrud.ru

Московская область: 8 (495) 343-99-54, git50.rostrud.ru

Прокуратура

epp.genproc.gov.ru

Санкт-Петербург: 8 (812) 315-48-53

Ленинградская область: 8 (812) 429-77-55

Москва: 8 (495) 955-97-73, 8 (495) 951-71-97

Московская область: 8 (495) 628-27-88

Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ (mehnatga majbur etilgan va ish haqi to'lanmagan holatlarda):

Санкт-Петербург: 8 (812) 571-00-40, 8 (812) 570-66-71
spb.sledcom.ru

Ленинградская область: 8 (812) 492-01-58, 8 (800) 200-97-80,
lenobl.sledcom.ru

Москва: 8 (495) 690-25-28, 8 (495) 690-65-53,
moscow.sledcom.ru

Московская область: 8 (499) 184-04-96, 8 (499) 184-00-65,
mosobl.sledcom.ru

Уполномоченный по правам человека

Санкт-Петербург: 8 (812) 241- 46-77, ombudsmanspb.ru

Ленинградская область: 8 (812) 296-60-13,
www.ombudsman47.ru

Москва: 8 (495) 957-05-85, ombudsman.mos.ru

Московская область: 8 (498) 602-32-20, upch.mosreg.ru

Ijtimoiy tashkilotlar

БФ «ПСП-фонд» (Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida mehnat muhojirlarini bepul huquqiy qo'llov):

8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09, psp-f.org, vk.com/pspfond

«Гражданское содействие» (Mockvada mehnat muhojirlarini bepul huquqiy qo'llov): 8 (495) 681-18-23 refugee.ru

Foydali axborot resurslari

Минтруда РФ «Работа в России» vakansiyalar bazasi:
trudvsem.ru

Федеральной службы по труду и занятости
xizmatlari:

www.onlayninspeksiya.rf

www.rostrud.ru

ГАС РФ «Правосудие» - Rossiya sudlari bilan muloqotlar
www.sudrf.ru

«Миграция и мигранты. Межрегиональный информационный портал» - moslashish va o'z huquqini himoya qilishga oid maslahatlar: migrussia.ru

Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Буклет «Трудовые права. Работа в России. Советы трудовым мигрантам» на узбекском языке.

Публикация подготовлена в рамках проекта «Межрегиональный ресурсный центр по адаптации и интеграции мигрантов и гармонизации межнациональных отношений», реализуемого при поддержке Фонда президентских грантов.

MEHNAT HUQUQI ROSSIYADA ISHLASH

Mehnat muhojirlariga maslahatlar

2021

Ish izlasda Sizga bo'sh ish o'rinlariga oid umumrossiya bazasi «Работа в России» dan foydalanishni maslahat beramiz: trudvsem.ru

Rossiyada 135 ta malakali mutaxassislar kasbidan iborat ro'yxat amal qiladi, bu kasbdagilar agar Rossiyada 1 yildan ortiq rasmiy ish stajiga ega bo'lishsa, osonlashtirilgan tartibda Rossiya fuqaroligini olishlari mumkin. Kasblar ro'yxati bilan quyidagi saytda mufassal tanishish mumkin:

www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/73476436/

Sizga oddiy maslahatlar yordam beradi:

- **qonuniy ishlang:** ishlash uchun patent oling, ish beruvchi bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzing: ish beruvchi Siz bilan shartnoma tuzishi va Sizga uning nusxasini berishi shart. Ish beruvchi unda mehnat shartnomasiga ko'ra 5 kundah ko'p ishlayotgan har bir ishchiga mehnat daftarchasi rasmiylashtirishi shart. Ishga qabul ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Xodim ishga qabul qilinganlik haqidagi buyruq nusxasini olish huquqiga ega.
Mehnat shartnomalari va ishga taalluqli boshqa hujjatlar namunalari bilan quyidagi saytda tanishish mumkin: onlayninspeksiya.rf/dokuments
- **ish beruvchingiz kimligini biling:** ishlayotgan tashkilotingiz atalishi va manzilini, rahbaringiz bilan muloqotni (vazifasi, nasabi, ismi, telefoni). Agar Sizga o'z huquqingizni himoya qilishga to'g'ri kelgudek bo'lsa, bu ma'lumotlar zarur bo'ladi.
- **vositachilarga murojaat etmang:** ular Sizga qalbaki hujjatlar tayyorlashlari va Sizdan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin. **Rossiyada yollanma mehnat (ish beruvchining o'z ishchilarini mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan turib boshqa tashkilotlarga jo'natishi) taqiqlangan!**
- **ish haqi miqdori va uni to'lash shartlarini aniq gaplashib oling:** Sizga qancha va aynan qaysi ish uchun pul to'lashlarini bilishingiz zarur. Ish haqi miqdori mehnat shartnomasida ko'rsatilishi zarur. Siz pulni yo Sizning nomingizdagi maxsus bank kartasidan, yoki shaxsan buxgalteriyada imzo chekib, hisob-kitob varagasi nusxasi bilan olishingiz zarur. Har qanday pul munosabatlari hujjat bilan tasdiqlanishi zarur.
- **imzolayoigan hujjatlarning hammasini diqqat bilan o'qing.** Sizga ularning nusxasini berishnu talab qiling. Agar Siz ularning mazmuni va shartlari bilan rozi bo'lmasangiz, shartnomalar, bildiruvlar va boshqa hujjatlarga imzo chekmaslik huquqiga egasiz.

- **ish beruvchiga o'z hujjatlaringizni saqlash uchun bermang:** Sizdan boshqa hech kim Sizning pasportingiz, ishga patent, sug'urtangizni, Sizning mehnat huquqi nusxangizni va boshqa hujjatlarni saqlashi mumkin emas, shuningdek, Sizning erkin harakatingizni cheklay olmaydi, telefoningizni tortib ola olmaydi va hokazo. Pasportni olib qo'yish va erkinlikni cheklash – jiddiy jinoyat: bunday holda polisiyaga murojaat etish zarur!
- **yordam so'rab murojaat eting:** polisiyaga, Прокуратуру, Государственную инспекцию труда, судга, Уполномоченному по правам человека ga, ijtimoiy tashkilotlarga.

XODIMNING MEHNAT HUQUQLARI

Mehnat huquqlari Трудовом кодексе РФ (ТК РФ) yozilgan.

To'la bandlikda bo'lgan **xodimning ish haqi** MPOT (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori) dan kam bo'lishi mumkin emas. Umumrossiya MPOT i (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori) 2021 yilda 12792 rublga teng edi, Moskva – 20589 rubl, Sankt-Peterburgda – 19000 rubl, Moskva viloyatida – 15000, Leningrad viloyatida – 12800 rubl.

Ish beruvchi mehnatni himoyalash sohasidagi qonunchilikni bajarishi shart – agar **Sizning ishingizda mehnat sharoiti** hayot va salomatlik uchun xavfli bo'lsa, tezda ishni to'xtatish va Следственный комитет ga shikoyat qiling.

Ish kuni soati uzunligi 8 soatdan, ish haftasi – 40 soatdah oshmasligi zarur. Ortiqcha ish uchun qo'shimcha haq to'lanadi (RF MKning 152, 153 va 154- moddalariga muvofiq).

Agar xodim o'z mehnat majburiyatlarini bajarmasa, ish beruvchi yozma tanbeh, hayfsan berishi, yoki belgilangan tartibda (RF MKning 192-moddasi) ishdan bo'shatishi mumkin. **Mehnat majburiyatlarini bajarmaganligi uchun jarimalar noqonuniy!**

Sababini tushuntirmasdan turib **ishdan bo'shatish taqiqlangan** (MKning 76-moddasi). Ishdan bo'shatish paytida xodimga albatta ishdan bo'shatish haqidagi buyruqni berishlari va unga ishdan bo'shatish haqida qayd qilingan mehnat daftarchasini qaytarishi shart.

Ish beruvchi xodimga u ishlagan vaqti yoki bajargan ishi uchun haq to'lashi shart, hatto ular orasida shartnoma tuzilmagan bo'lsa-da (RF MKning 67-moddasi).

Agar Sizga ish haqi berishni kechiktirishsa, Sizga tavsiya etamiz:

- Agar ish haqi berishni 15 kundan ko'proq muddatga kechiktirishsa, Siz RF MKning 142-moddasi, 2-qismiga muvofiq ish beruvchiga ish haqi to'lanmaganligi sababli ishni to'xtatish borasida ariza yozish huquqiga egasiz.
- Ish beruvchiga RF MKning 62-moddasiga muvofiq ishga oid barcha hujjatlar, jumladan, hisob-kitob varaqalari nusxalarini berish borasida yozma ariza bilan murojaat qiling.
- Agar Siz 3 ish kuni davomida hujjatlar nusxalarini olmasangiz, Davlat mehnat nazoratiga ish beruvchi ustidan ariza yozing.
- Ish beruvchiga ish haqidan qarzni to'lash borasidagi shikoyat bilan murojaat qiling. Shikoyat jamoaviy bo'lishi mumkin. Shikoyatni ko'rib chiqish vaqtida Sizni ishdan bo'shatishga huquqlari yo'q. Shikoyat berilayotgan paytda arizaning u olingan sanasi haqidagi ish beruvchi imzosi qo'yilgan yoki muhr bosilgan nusxasi qo'lingizda qolishi muhimdir.
- Agar ish beruvchi shikoyatga javob bermasa, prokuratura yo sudga shikoyat bilan murojaat etish mumkin. Prokuratura mehnat huquqlari buzildan xodimlar manfaati yuzasidan sudga murojaat etish huquqiga ega, shuningdek, ish beruvchi ishini tekshirish, uni ma'muriy javobgarlikka tortish huquqiga ega. Bir kishining murojaatiga qaraganda jamoaviy murojaatlar ko'proq samara beradi.
- RF MKning 360.1 -moddasiga muvofiq ish beruvchini qarzni to'lashga Davlat mehnat nazorati majbur etishi mumkin – buning uchun Sizning mintaqangizdagi Государственную инспекцию труда (ГИТ) ga ish haqi to'lanmaganligi borasida mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza yozish zarur.
RF MKning 236-moddasiga muvofiq, ish beruvchi tomonidan ish haqi to'lash, mehnat ta'ili haqi, ishdan bo'shatishda va xodimga berilishi zarur boshqa to'lovlarning belgilangan muddatlari buzilgan holda ish beruvchi bu haqni foizi bilan to'lashga majbur.
RF MKning 392-moddasiga muvofiq, xodim o'z huquqi buzilganini bilganidan so'ng 3 oy davomida, ishdan bo'shatishga oid bahslarda esa – ishdan bo'shatish haqidagi buyruq nusxasini qo'liga olganidan so'ng 1 oy davomida yoki mehnat daftarchasini olgan kundan boshlab sudga murojaat qilish huquqiga ega.